

BOSHLANG`ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING O`ZIGA HOS XUSUSIYATLARI VA TURLARI.

Tolipov Rustam Mamasoliyevich

Qo`qon davlat pedagogika instituti boshlang`ich ta`lim kafedrasida o`qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqola boshlang`ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning o`ziga hos xususiyatlari va turlari haqida bo`lib, unda boshlang`ich sinflarda matematika fanida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning turli metodlari, maqsad va vazifalari, sinfdan tashqari ishlarning turlari va ularning tashkil etish xususiyatlari haqida ma`lumotlar berilgan.

Kalit so`zlar: sinfdan tashqari ishlar, qiziqarli matematika, matematik to`garak, matematika gazetasi, ekskursiya, matematik burchak, matematik kecha.

Yosh avlodni hozirgi zamon fani asoslari bilan qurollatirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishlariga erishish umumta`lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. O`quvchilar yuqori sinflarda matematika, fizika, kimyo va boshqa fanlarni yaxshi o`zlashtirishlari uchun boshlang`ich sinflarda matematika fanini puxta egallashi va amaliy ko`nikmalar hosil qilishlari kerak. Boshlang`ich sinf o`quvchilarning ma`lumotini oshirish va darslarni o`zlashtirish darajasini ko`tarishga ko`maklashishi uchun, boshlang`ich maktabda sinf mashg`ulotlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarni ham o`tkazish zarur. Sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ishlar bolalar bilan olib boriladigan ta`lim-tarbiya ishlarining ajralmas qismi bo`lishi bilan birga, o`quvchilarni bilimga va mehnatga bo`lgan havaslarini ortiradi, shuningdek, o`zlashtirish sifatini oshirishga va xulqini yaxshilashga ta`sir etadi. Matematikadan sinfdan tashqari mashg`ulotlar deganda o`quvchilarni matematik bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida tashkil qilingan

mashg'ulotlarni tushunamiz. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o'quvchilardagi fanga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to'ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi matematik bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Umuman boshlang'ich maktabda sinfdan tashqari ishlar sinf ishlari bilan mustahkam bog'langan bo'lib, sinf ishlarining davomi bo'ladi, ayrim vaqtlarda esa uni chuqur Ma'lumki birinchi tur mashg'ulotlar hozirgi vaqtda barcha maktablarda mavjud. Bunda mashg'ulotlarni 3-4 o'quvchidan iborat kichkina guruhlar bilan haftada bir marta o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Odatda sinfdan tashqari ishlar deyilganda ko'proq ikkinchi turdagi ishlar nazarda tutiladi va ular asosan quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

1. O'quvchilarda matematika va uning tadbiqlariga qiziqish uyg'otish;
2. O'quvchilarning matematikadan dastur bo'yicha bilimlarini kengaytirish;
3. Matematik fikrlash madaniyatini tarbiyalash;
4. O'quvchilarni matematikadan ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish;
5. O'quvchilarning matematikaning tarixiy-ilmiy qimmati haqidagi, matematika maktabining dunyo fani orasidagi roli haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

Bu maqsadlarning bir qismi dars paytida amalga oshiriladi, ammo dars vaqti chegaralanganidan, uning anchagina qismini sinfdan tashqari mashg'ulotlarda amalga oshirishga to'g'ri keladi. Maktab tajribasida matematikadan kichik yoshdagi o'quvchilar bilan bajariladigan sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari uchraydi:

1. Qiziqarli matematika soatlari va minutlari;
 2. Matematik to'garaklar uyushtirish;
 3. Matematika gazetasi chiqarish;
 4. Ekskursiya o'tkazish;
 5. Matematik burchak tashkil qilish;
 6. Matematika kechalari o'tkazish;
 7. Boshlang'ich maktablarda matematika olimpiadasi o'tkazish.
- Matematika gazetasini chiqarish.

O'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishni oshirish va ularning bu fanni chuqur o'zlashtirishlarini ta'minlashda matematika gazetasi, ro'znomasini o'rnini katta. Matematik gazetaga materiallar tayyorlash, uni sistemaga solish, tahlil qilish o'quvchilarni ijodiy fikrlash hamda mustaqillik qobiliyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Shu sababli har bir maktabda matematika to'garagini organi bo'lgan matematik devoriy gazeta doimiy chiqib turishi lozim. Devoriy ro'znoma maktab hayotini aks ettirish bilan birga bilim uchun va intizom uchun kurash olib boradi. Maktablarda devoriy gazeta bilan bir vaqtda bolalarning bo'sh vaqtlarini qiziqarli, zerikmaydigan qilib uyushtirish va ularda matematika faniga bo'lgan muhabbatini tarbiyalash maqsadida matematik gazeta chiqarish mumkin. Matematika gazetasini to'garak a'zolari tomonidan saylangan hamda o'qituvchi rahbarligida 3 – 5 o'quvchidan iborat redkollegiya chiqaradi. O'qituvchi redkollegiya a'zolariga ishlarni taqsimlab beradi.

Matematik viktorinalar - gazetalardan farqli ravishda faqat o'quvchilarga yechish uchun berilgan masalalar va savollardan iborat bo'ladi. Javoblar yozma ravishda ma'lum vaqt ichida o'qituvchi tomonidan g'olib o'quvchi aniqlanib, e'lon qilib boriladi.

Matematik devoriy gazeta, viktorinalar, odatda matematik burchak deb ataluvchi joyga osib qo'yiladi, bu burchakda Vatanimiz yutuqlarini ifodalovchi sonli ma'lumotlar ham berib boriladi. "Bilasizmi?" ruknida qiziqarli materiallar beriladi. Masalan:

1. Odamning bo'yi bir kunda 1 sm dan 6 sm gacha o'zgarishi mumkin.
2. Dunyodagi eng uzun temir yo'l 9302 km ni tashkil etadi.
3. Dunyoda okeanlar suvida 13300 mln tonnagacha kumush bor.

Matematika burchagini tashkil qilishni o'quvchilar va ularning ota-onalari faoli yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Ekspeditsiya o'tkazishdan maqsad nimaligi bolalarga tushunarli bo'lishi nihoyatda muhimdir, shunday bo'lganda bolalar oldindan nima qilishlari kerakligini va o'zlarini qanday tutishlari kerakligini bilib oladilar.

Maktabning joylashgan o'rniga qarab bolalar bilan har xil ustaxonalarga, fabrikalarga, kombinatlarga, fermalarga, shirkat xo'jaligi va fermer xo'jaligi hamda

boshqa joylarga ekskursiyalar o'tkaziladi. Qurilish materialidan, mashinalardan, ishchi kuchlaridan va boshqa narsalardan foydalanish haqida masalalar tuzish va yechish mumkin. Shunday masalalardan ba'zilarini keltiramiz:

1. Bir soatda ekskavator 4 m uzunlikda poydevor chuqurligini kavlaydi. Shunday ish unumi bilan u 7 soatda qancha chuqurlik (o'ra) kovlaydi?
2. Qurilishga yuk tashishda 4 ta avtomashina ishlamoqda. Ularning har birida bitta haydovchi va ikkita yukchi ishlaydi. Material tashishda hammasi bo'lib qancha odam band?

Qurilish materiallaridan mehnat darslari uchun stendlar tayyorlashda foydalanish mumkin, bunda binolarning maketlarini tayyorlash ham mumkin. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi quyidagilarga asoslanishi kerak.

1. Darsda o'quvchilar olgan bilim, malaka va ko'nikmalarni hisobga olgan holda o'tkaziladi.
2. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning xoxishi, havaskorligi, ijodkorligi tamoyiliga asoslanishi va har bir o'quvchini fikriga qarab ularni qoniqtirish maqsadida tashkil qilinadi.
3. Sinfdan tashqari ishlarni o'tkazish shakllari darslardan farq qilib qiziqarli tomoni kuchli bo'ladi. Buning uchun zaruriy shart shuki, o'tkaziladigan ishning rejalashtirilishi va tizimligining murakkabligidadir.

Quyida sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazish rejasini keltiramiz.

Matematik tanlovlar

Tanlovlar har xil qiyinlikdagi masalalarni yechish, qiziqarli fikrlaydigan masalalar va topshiriqlarni bajarishdagi musobaqalar bo'lib hisoblanadi. Asosan o'quvchilarning xohishi bo'yicha masalalar yechishda o'z kuchini sinaydigan, yetarlicha tayyorgarligi borlari ishtirok qiladi.

Boshlang'ich maktabda matematika olimpiadasi.

Sinfning eng yaxshi matematigini aniqlash uchun matematika konkurslar o'tkaziladi. Matematik konkurslar qiyin masalalar yechish va o'tkir zehn va tez tushuna olishini talab qiluvchi topshiriqlarni bajarish bo'yicha o'ziga xos musoboqadir. Matematik konkurslar asosan yaxshi matematikni, tez tushunadigan, payqaydigan ziyraklarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Konkurs temasi va uning o'tkazilish vaqti aniqlanadi, avvaldan teyinlanadi. Masalan: Masalalar yechish og'izaki va yozma hisoblash geometrik topshiriqlar va hokazo. Bolalarda bu konkursga qatnashish, qiziqishni hosil qilish uchun va ular musobaqaga tayyorgarlik ko'rishlari uchun o'qituvchi konkursning maqsad va vazifalari nimadan iboratligini tushuntirish bo'yicha tegishli ish olib boradi. Topshiriqlar yozma bajariladi va och kolar bilan baholanadi. Konkurslarni II, III, IV, sinflarda o'tkazish mumkin. Masalan:

1. Ikki koptok jun ipdan 3 ta qalpoqcha to'qish mumkin. 9 ta shunday qalpoqcha to'qish uchun necha koptok ip kerak? $(9:3):2=6$

2. Saida bilan Halimaning birgalikda 30 ta konfeti bor edi. Ular baravardan konfet yeganlaridan keyin Saidaning 9 ta, Halimaning 5 ta konfeti qoldi. Ular nechtdan konfet yeyishgan? $9+5=14$. $30 - 14=16$. $16:2=8$. Javob: 8 tadan.

3. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 sonlari berilgan. Shu qatoridagi sonlardan uchtdan qo'shib javobida 15 chiqadigan misollardan ko'proq hosil qiling?

$$9+1+5, \quad 8+4+3, \quad 7+2+6, \quad 8+1+6, \quad 8+2+5, \quad 7+5+3,$$

$$6+5+4, \quad 9+2+4, \quad 5+3+1, \quad 5+7+3, \quad 5+8+2, \quad 5+6+4.$$

Olimpiadalar ham konkurslar kabi maqsadlarni ko'zda tutadi, biroq ular maktabdagi parallel sinflardan qobiliyatli, matematikaga jiddiy qiziqadigan bolalar tanlab olishga imkon beradi. Olimpiadalarga yuboriladi. Maktab olimpiadalari odatda ikki turda o'tkaziladi. Birinchi yarim yilda o'qituvchi dasturdan qator masalalarni yozib devorga osib qo'yadi. Bir nechta dasturdan tashqari masalalar ham beradi, uni o'quvchilar darsdan tashqari vaqtda yechadilar. Matematik ertaliklar (kechlar) ommaviy tadbirlardan biri bo'lib, o'quvchilar va ota – onalar o'rtasida matematik bilimlarni tarqatish hamda

o'quvchilarning matematikaga qiziqishini oshirish, shu bilan birga ularni matematik to'garaklarga ko'proq jalb qilish maqsadida o'tkaziladi.

Bunday ertaliklar I – IV sinflarda 1 – 2 marta o'tkazish mumkin.

Ertalikni bir sinf bilan yoki parallel sinflarni qo'shib o'tkazish mumkin. Ertalik o'rtahisobda bir soat davom etishi mumkin. Ertalikni o'tkazish uchun puxta tayyorgarlik ko'rish kerak. Buning uchun eng kamida biro y oldin o'qituvchi chuqur o'ylangan reja tuzib chiqishi kerak. Shundan keyin o'quvchilar bilan suxbatlashib, ularga qilinadigan ishlar taqsimlab chiqiladi. Bu ishga yuqori sinf o'quvchilarini va ota – onalarini ham jab qilish mumkin. Ertalik dasturini kerakli materiallar (she'r, qo'shiq, boshqotirma, qiziqarli masala, matematik o'yin, konkurs masalalari, viktorina savollari, ishtirokchi personajlar kostyumi va boshqa) tayyor bo'lgadan so'ng yana bir marotaba ko'rib chiqish va muhokamadan o'tkazish kerak. Bu o'rtoqlarini ham taklif etish shart. Ertalikni (kecha) o'tkazishdan bir hafta oldin uning chiroyli bezatilgan va katta qilib yozilgan dasturni ko'rinarli joyga osib qo'yish kerak. Dasturdagi ba'zi savollarga boshqa o'quvchilar ham tayyorgarlik ko'rishi mumkin. Ertalik o'tayotgan xonaga (zal) shu ertalikka atab chiqarilgan matematik ro'znoma yoki jurnal osib qo'yiladi. Iloji boricha shu xona ertalikka moslab bezatiladi. Ertalikda (kecha) ishtirok etgan bolalar fantaziya qilish, muloxaza yuritish, to'g'ri fikrlash va gapirishga o'rganishadi. Demak, matematik ertalik uchun sarflangan vaqt faqat matematik qimmatga ega bo'lmay, balki o'quvchilar uchun umummadaniy qimmatga va tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Normatov, A. A., Tolipov, R. M., & Musayeva, S. H. Q. (2022). МАКТАБЛАРДА МАТЕМАТИКА ФАНИНИ О'QITISHNING DOLZARB MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 1068-1075.
2. Толипов, Р. М. (2023, February). СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ ИНДУКЦИИ, ДЕДУКЦИИ И АНАЛОГИИ ПРИ РЕШЕНИИ ПРИМЕРОВ И ЗАДАЧ В МЛАДШИХ КЛАССАХ. In *E Global Congress (Vol. 2, pp. 36-46)*.

3. Mamadalievich, Y. M., & Mamasolievich, T. R. (2022). THE NEWSPAPER " SADOI FERGHANA" IS THE NEWSPAPER OF THE FERGANA REGION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 1236-1240.
4. Tolipov, R., & Yusupov, M. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE FORM OF EDUCATION IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF THE LESSON. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 1633-1637.
5. Tolipov, R. (2022). Characteristics of the levels of formation of the control action in younger schoolchildren. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(11), 92-99.
6. Yusupov, M. M. (2022). FEATURES OF THE ORGANIZATION AND CONDUCT OF EDUCATIONAL PRACTICE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(06), 195-200.
7. Mirhojiddinovna, J. D., Shavkatovna, A. M., & Alijonovna, M. D. (2022). Lingupoetic Features Of Unconventional Combinations And Agricultural Terms In Literary Texts. *Journal of Positive School Psychology*, 6(11), 1599-1604.
8. Abdulkhayeva, M. The Role of Dictations in the Development of Students' Written Speech in the First Class. *International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology*.
9. Abdulxayeva, M. (2023). ONA TILI VA O 'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK METODLARNING TUTGAN O 'RNI. Scienceweb academic papers collection.
10. Musharrafa, A. (2023). Relationship of Mother Language and Reading Literacy with Natural Science. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(3), 78-82.
11. Abdulxayeva, M. (2023). AKTdan foydalangan holda diktant olish metodikasi. Scienceweb academic papers collection.
12. Abdulxayeva, M. (2023). O'Z DIKTANT YOKI YODDAN YOZUV DIKTANTI. *Interpretation and researches*, 1(1).